O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

RAQAMLI PEDAGOGIKA SHAROITIDA METODIK KOMPETENTLIK TUSHUNCHASINING MAZMUNI VA STRUKTURAVIY TAVSIFI

Mamasoliyev Akmaljon Azizjon o'g'li

Qo'qon davlat universiteti, o'qituvchi.
e-mail: 2932528@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0002-7723-5126

Annotatsiya.

Maqolada raqamli pedagogika sharoitida bo'lajak pedagoglar metodik kompetentligining mazmuni va strukturasi nazariy jihatdan tahlil qilindi. Metodik kompetentlik raqamli resurslarni didaktik jihatdan tanlash, ta'lim jarayonini loyihalash, amaliy qo'llash, diagnostika va refleksiyani birlashtiruvchi integrativ kasbiy sifat sifatida talqin qilindi. Tahlil asosida uning motivatsion-qadriyatli, kognitiv-metodik, loyihaviy-texnologik, faoliyatli-amaliy, diagnostik-baholash va refleksiv-rivojlantiruvchi komponentlardan iborat strukturasi taklif etildi. Ushbu komponentlarning o'zaro uyg'unligi raqamli ta'lim muhitida asoslangan metodik qarorlar qabul qilishning muhim sharti ekanligi ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: raqamli pedagogika, metodik kompetentlik, bo'lajak pedagog, raqamli ta'lim muhiti, pedagogik loyihalash, diagnostika, refleksiya.

СОДЕРЖАНИЕ И СТРУКТУРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОНЯТИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ПЕДАГОГИКИ

Мамасолиев Акмалжон Азизжон угли

Кокандский государственный университет, преподаватель.

Аннотация.

В статье теоретически проанализированы содержание и структура методической компетентности будущих педагогов в условиях цифровой педагогики. Методическая компетентность рассматривается как интегративное профессиональное качество, объединяющее дидактически обоснованный выбор цифровых ресурсов, проектирование образовательного процесса, их практическое применение, диагностику и рефлексию. На основе проведённого анализа предложена структура методической компетентности, включающая мотивационно-ценностный, когнитивно-методический, проектно-технологический, деятельностно-практический, диагностико-оценочный и рефлексивно-развивающий компоненты. Показано, что взаимосвязь и согласованность данных компонентов являются важным условием принятия обоснованных методических решений в цифровой образовательной среде.

Ключевые слова: цифровая педагогика, методическая компетентность, будущий педагог, цифровая образовательная среда, педагогическое проектирование, диагностика, рефлексия.

CONTENT AND STRUCTURAL CHARACTERISTICS OF THE CONCEPT OF METHODOLOGICAL COMPETENCE IN DIGITAL PEDAGOGY

Mamasoliyev Akmaljon Azizjon o'g'li

Kokand State University, Lecturer.

Abstract.

The article provides a theoretical analysis of the content and structure of future teachers' methodological competence in the context of digital pedagogy. Methodological competence is interpreted as an integrative professional quality that combines the didactically grounded selection of digital resources, instructional design, practical application, diagnostics, and reflection. Based on the analysis, a structure of methodological competence is proposed, comprising motivational-value, cognitive-methodological, design-technological, activity-practical, diagnostic-evaluative, and

reflective-developmental components. The study demonstrates that the coherence and interaction of these components constitute an important condition for making well-grounded methodological decisions in a digital learning environment.

Keywords: digital pedagogy, methodological competence, future teacher, digital learning environment, instructional design, diagnostics, reflection.

Kirish. Ta'lim jarayonining raqamli transformatsiyasi pedagog kasbiy faoliyatining mazmuni va metodik tuzilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy pedagogdan nafaqat fan mazmunini bilish va an'anaviy metodlardan foydalanish, balki raqamli resurslarni pedagogik maqsadga muvofiq tanlash, o'quv faoliyatini loyihalash, individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish, natijalarni diagnostika qilish hamda o'z faoliyatini refleksiv baholash talab etilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yangi ta'lim resurslarini yaratish va ulardan samarali foydalanish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan [1]. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida esa zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar asosida ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan [2].

Raqamli ta'lim muhitining kengayishi metodik kompetentlik tushunchasining mazmunini ham yangicha talqin qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. An'anaviy yondashuvda metodik kompetentlik ko'proq o'qitish metodlari, shakllari va vositalarini bilish hamda ularni amaliyotda qo'llash bilan izohlangan bo'lsa, hozirgi sharoitda uning tarkibiga texnologik-pedagogik integratsiya, raqamli ta'lim dizayni, adaptiv o'qitish, raqamli baholash va refleksiv faoliyat kabi yangi jihatlar kirib kelmoqda. P. Mishra va M. J. Koehlerning TPACK modeli texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlarning o'zaro integratsiyasini samarali pedagogik faoliyatning muhim sharti sifatida asoslaydi [3]. DigCompEdu konsepsiyasida esa pedagogning raqamli resurslardan foydalanishi ta'limni tashkil etish, baholash va ta'lim oluvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish bilan uzviy bog'langan [4].

Shu nuqtayi nazardan, metodik kompetentlikni raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmasi bilan cheklash ilmiy jihatdan yetarli emas. U pedagogik vaziyatni tahlil qilish, metodik maqsadni aniqlash, an'anaviy va raqamli vositalarni uyg'unlashtirish, ta'lim jarayonini loyihalash, natijalarni baholash va faoliyatni takomillashtirishni qamrab oluvchi integrativ kasbiy sifat sifatida qaralishi lozim. Zamonaviy tadqiqotlarda ham pedagogning raqamli tayyorgarligi texnik ko'nikmalardan ko'ra kengroq, ya'ni metodik, pedagogik va refleksiv faoliyat bilan bog'liq kompetensiyalar majmui sifatida talqin qilinmoqda [5].

Mazkur holat raqamli pedagogika sharoitida metodik kompetentlikning mazmunini aniqlashtirish, uning tarkibiy komponentlarini tizimlashtirish va ular o'rtasidagi funksional aloqalarni ilmiy asoslash zaruratini belgilaydi. Tadqiqotning maqsadi raqamli pedagogika sharoitida bo'lajak pedagoglar metodik kompetentligining mazmunini nazariy jihatdan aniqlashtirish hamda uning strukturaviy komponentlarini tavsiflashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Metodik kompetentlik pedagogning kasbiy tayyorgarligini belgilovchi muhim tushunchalardan biri sifatida mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda turlicha talqin qilinadi. O'zbekiston pedagogika ilmida N. A. Muslimov, M. H. Usmonboyeva, D. M. Sayfurov va A. B. To'rayev pedagogik kompetentlikni pedagogga xos kasbiy sifatlar, amaliy faoliyat va o'z kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirish bilan bog'liq holda yoritganlar [6]. Ushbu yondashuv metodik kompetentlikni kasbiy kompetentlik tizimining muhim qismi sifatida tushunish uchun nazariy asos yaratadi. Biroq mazkur yondashuv shakllangan davrda raqamli ta'lim muhiti pedagog faoliyatining bugungi darajadagi integral komponenti sifatida hali alohida strukturaviy omil sifatida qaralmagan.

So'nggi mahalliy tadqiqotlarda esa "raqamli metodik kompetentlik" tushunchasiga bevosita murojaat qilinmoqda. B. A. Alikulova bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli metodik kompetentligini raqamli texnologiyalardan foydalanish, ularni o'quv jarayoniga metodik jihatdan to'g'ri integratsiya qilish hamda raqamlashtirilgan muhitda ta'limni tashkil etishga tayyorlik bilan bog'laydi [7]. Bu yondashuv metodik va raqamli tayyorgarlikning o'zaro yaqinlashayotganini ko'rsatsa-da, umumkasbiy metodik kompetentlikning raqamli pedagogika ta'sirida qanday strukturaviy transformatsiyaga uchrashi masalasi yanada chuqur nazariy asoslashni talab qiladi.

Rossiya pedagogik tadqiqotlarida metodik kompetentlikning strukturaviy mazmuniga nisbatan ancha keng yondashuv kuzatiladi. S. V. Alekseev va S. A. Bogolepov metodik kompetentlikni mazmuniy, protsessual va baholash jihatlarini birlashtiruvchi metodik kompetensiyalar majmui sifatida talqin qilib, uning zamonaviy tarkibiga raqamli, muhitni tashkil etish va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini ham kiritadilar [8]. R. R. Xamatvalieva esa bo'lajak o'qituvchining metodik kompetentligini raqamli ta'lim muhitida shakllantirishni maxsus tadqiq qilib, uning mazmuni, tarkibiy komponentlari, pedagogik shart-sharoitlari va strukturaviy modelini ishlab chiqqan [9].

Yevropa tadqiqotlarida muammo ko'proq texnologiyani pedagogik faoliyatga mazmunli integratsiyalash nuqtayi nazaridan o'rganiladi. J. Tondeur va hammualliflar bo'lajak pedagoglarni texnologiyadan samarali foydalanishga tayyorlashda pedagog-o'qituvchining namunasi, texnologiyani loyihalash orqali o'rganish, autentik pedagogik tajriba, hamkorlik va refleksiya muhimligini aniqlaganlar [10]. E. J. Instefjord va E. Munthe professional raqamli kompetentlik pedagogik ta'limning alohida texnologik elementi emas, balki o'qituvchini kasbiy tayyorlash dasturlariga

integratsiyalangan sifat bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydilar [11].

G. Falloon tomonidan taklif etilgan Teacher Digital Competency modeli ham raqamli kompetentlikni oddiy texnik savodxonlik bilan cheklamaydi. Muallif raqamli muhitdagi pedagog faoliyatida texnologik imkoniyatlarni pedagogik maqsadlar, o‘quv faoliyatini loyihalash hamda kasbiy qarorlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini asoslaydi [12]. Ushbu konsepsiya raqamli pedagogika sharoitida metodik kompetentlikning an’anaviy mazmuni kengayib, unga raqamli resurslarni didaktik tanlash, pedagogik dizayn, texnologiyaga asoslangan diagnostika va refleksiv faoliyat kabi yangi funksiyalar qo‘shilayotganini anglash imkonini beradi.

Tahlil qilingan tadqiqotlarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, metodik kompetentlikning an’anaviy bilim–metod–amaliyot doirasidagi talqini raqamli pedagogika talablarini to‘liq aks ettira olmaydi. Raqamli ta’lim muhitida metodik kompetentlik pedagogning kasbiy motivatsiyasi va qadriyatlari, metodik bilimlari, raqamli-didaktik loyihalash qobiliyati, amaliy faoliyati, ta’lim natijalarini diagnostika qilishi va o‘z faoliyatini refleksiv takomillashtirishi bilan yaxlit holda namoyon bo‘ladi. Shu asosda mazkur tadqiqotda metodik kompetentlikning motivatsion-qadriyatli, kognitiv-metodik, loyihaviy-texnologik, faoliyatli-amaliy, diagnostik-baholash va refleksiv-rivojlantiruvchi komponentlardan iborat strukturasi konseptual asos sifatida qabul qilinadi.

1-jadval. Metodik kompetentlikka oid ilmiy yondashuvlarning qiyosiy tavsifi

Ilmiy yo‘nalish	Metodik kompetentlik talqini	Ustuvor jihat	Mazkur tadqiqot uchun ahamiyati
O‘zbekiston – an’anaviy yondashuv [6]	Kasbiy-pedagogik kompetentlik tizimining tarkibiy qismi	Kasbiy bilim, faoliyat va pedagogik mahorat	Metodik kompetentlikning kasbiy asosini belgilaydi
O‘zbekiston – zamonaviy raqamli yondashuv [7]	Raqamli texnologiyalarni metodik jihatdan integratsiyalash qobiliyati	Raqamli va metodik tayyorgarlikning uyg‘unligi	“Raqamli metodik kompetentlik” tushunchasini aniqlashtiradi
Rossiya/MDH [8; 9]	Mazmuniy, faoliyatli, baholash va raqamli jihatlarni birlashtiruvchi integrativ sifat	Strukturaviy komponentlar va raqamli ta’lim muhiti	Kompetentlik strukturasini modellashtirishga asos beradi
Yevropa [10; 11]	Texnologiyani kasbiy-pedagogik faoliyatga integratsiyalashga tayyorlik	Loyihalash, autentik tajriba, hamkorlik, refleksiya	Metodik kompetentlikning faoliyatli va texnologik jihatlarini kengaytiradi
Xalqaro TDC yondashuvi [12]	Texnik, pedagogik va kasbiy raqamli imkoniyatlarning integratsiyasi	Texnologiyadan pedagogik maqsadda foydalanish	Raqamli pedagogika sharoitidagi yangilangan metodik funksiyalarni aniqlash imkonini beradi

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar metodik kompetentlikning alohida jihatlarini yetarlicha yoritadi, biroq “Raqamli pedagogika” fani kontekstida uning yangilangan mazmuni va tarkibiy komponentlarini yagona strukturaviy tizimda ifodalash masalasi maxsus tadqiqotni talab qiladi. Mazkur ilmiy bo‘shliq ushbu tadqiqotda metodik kompetentlikning olti komponentli strukturaviy tavsifini ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-analitik xarakterga ega bo‘lib, raqamli pedagogika sharoitida bo‘lajak pedagoglar metodik kompetentligini strukturaviy jihatdan tavsiflashga qaratildi. Tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatli va integrativ yondashuvlardan foydalanildi. Ilmiy manbalarni kontent-tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, strukturaviy tahlil va pedagogik modellashtirish metodlari asosiy tadqiqot usullari sifatida belgilandi.

Metodik kompetentlik strukturasini aniqlashda uning faqat metodik bilimlar yig‘indisi emas, balki pedagogik faoliyatning maqsadli, kognitiv, loyihaviy, amaliy, diagnostik va refleksiv jihatlarini birlashtiruvchi integrativ kasbiy sifat ekanligi asosiy metodologik pozitsiya sifatida qabul qilindi. Bunda TPACK konsepsiyasidagi texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlar integratsiyasi [3], DigCompEdu modelidagi raqamli resurslar, ta’limni tashkil etish va baholash yo‘nalishlari [4], shuningdek, professional raqamli kompetentlikning faoliyat va refleksiya bilan bog‘liqligini asoslovchi tadqiqotlar [10–12] nazariy tayanch sifatida olindi.

Tahlil natijasida raqamli pedagogika sharoitidagi metodik kompetentlikning oltita o‘zaro bog‘liq komponenti ajratildi: motivatsion-qadriyatli, kognitiv-metodik, loyihaviy-texnologik, faoliyatli-amaliy, diagnostik-baholash va refleksiv-rivojlantiruvchi. Har bir komponent uning mazmuni, bajaradigan funksiyasi va pedagogik faoliyatda

kuzatiladigan namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari asosida operatsionallashtirildi.

2-jadval. Raqamli pedagogika sharoitida metodik kompetentlikning strukturaviy tavsifi

№	Komponent	Komponentning mazmuni	Asosiy funksiyasi	Namoyon bo‘lish ko‘rsatkichi
1	Motivatsion-qadriyatli	Raqamli pedagogik faoliyatga ijobiy munosabat, metodik yangiliklarni qabul qilishga tayyorlik, pedagogik mas’uliyat va kasbiy rivojlanishga ehtiyoj	Metodik faoliyatga ichki motivatsiya va innovatsion faoliyatga qadriyatli munosabatni shakllantirish	Raqamli va metodik yangiliklarni o‘zlashtirishga qiziqadi; kasbiy rivojlanish maqsadlarini belgilaydi; texnologiyani pedagogik maqsad nuqtayi nazaridan baholaydi
2	Kognitiv-metodik	Ta’lim nazariyasi, metodlar, shakllar, didaktik tamoyillar, raqamli vositalarning pedagogik imkoniyatlari va tanlash mezonlari haqidagi bilimlar	Metodik qarorlarning nazariy va didaktik asoslanganligini ta’minlash	Pedagogik vaziyat uchun metod va vositani asoslab tanlaydi; raqamli va an’anaviy metodlarning imkoniyatlari hamda cheklovlarini tushuntiradi
3	Loyihaviy-texnologik	Ta’lim maqsadi, mazmuni, metodlari, raqamli resurslar va baholash vositalarini yagona didaktik tizimda loyihalash qobiliyati	Raqamli ta’lim jarayonini oldindan rejalashtirish va pedagogik dizaynni amalga oshirish	Raqamli dars ssenariysi tuzadi; maqsad–mazmun–metod–vosita–baholash muvofiqligini ta’minlaydi; mos texnologiyani tanlaydi
4	Faoliyatli-amaliy	Raqamli va an’anaviy metodlarni amaliyotda uyg‘unlashtirish, interaktiv, individual va hamkorlikdagi o‘quv faoliyatini tashkil etish	Loyihalashtirilgan metodik yechimni real pedagogik faoliyatga tatbiq etish	Pedagogik vaziyatga mos metoddan foydalanadi; individual va guruh faoliyatini tashkil etadi; raqamli resurslarni maqsadga muvofiq qo‘llaydi
5	Diagnostik-baholash	O‘quv natijalarini aniqlash, mezon va indikatorlar ishlab chiqish, raqamli diagnostika vositalaridan foydalanish va metodik korreksiya kiritish	Ta’lim natijalarini nazorat qilish va metodik faoliyatni dalillar asosida takomillashtirish	Baholash mezonlarini ishlab chiqadi; diagnostik ma’lumotlarni tahlil qiladi; natijalarga ko‘ra metod va topshiriqlarni o‘zgartiradi
6	Refleksiv-rivojlantiruvchi	O‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, metodik qarorlar samaradorligini baholash, kamchiliklarni aniqlash va kasbiy rivojlanish strategiyasini belgilash	Metodik kompetentlikning uzluksiz yangilanishi va o‘z-o‘zini rivojlantirishini ta’minlash	O‘z faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi; metodik xatolar sababini tahlil qiladi; muqobil yechim ishlab chiqadi va faoliyatini qayta loyihalaydi

Taklif etilgan strukturada komponentlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki yagona metodik faoliyat doirasida funksional bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Motivatsion-qadriyatli komponent metodik faoliyatga yo‘nalishni belgilasa, kognitiv-metodik komponent mazkur faoliyatning bilim asosini yaratadi. Loyihaviy-texnologik komponent pedagogik jarayonni oldindan qurish imkonini beradi, faoliyatli-amaliy komponent esa ishlab chiqilgan metodik yechimlarni real ta’lim vaziyatiga tatbiq etishni ta’minlaydi. Diagnostik-baholash komponenti olingan natijalarni aniqlash va tahlil qilishga, refleksiv-rivojlantiruvchi komponent esa ushbu natijalar asosida pedagogik faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu komponentlar o‘rtasidagi bog‘liqlik chiziqli emas, balki har bir yangi pedagogik vaziyatda qayta faollashadigan siklik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur strukturaviy bog‘liqlik 1-rasmda ko‘rsatilgan.

1-rasm. Raqamli pedagogika sharoitida metodik kompetentlikning siklik strukturasi

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil natijalari raqamli pedagogika sharoitida metodik kompetentlik mazmuni an'anaviy metodik bilim va ko'nikmalar doirasidan sezilarli darajada kengayayotganini ko'rsatdi. Zamonaviy pedagog nafaqat o'qitish metodlarini bilishi, balki ularni raqamli ta'lim muhiti, pedagogik vaziyat va kutiladigan natijaga mos ravishda tanlashi, integratsiyalashi va baholashi zarur. Shu sababli metodik kompetentlik raqamli pedagogika sharoitida integrativ va dinamik kasbiy sifat sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil davomida ajratilgan oltita komponent metodik kompetentlikning o'zaro bog'langan funksional strukturasini shakllantirishi aniqlandi. Motivatsion-qadriyatli komponent pedagogning yangilikka va kasbiy rivojlanishga tayyorligini belgilaydi; kognitiv-metodik komponent metodik qarorlarning nazariy asosini yaratadi; loyihaviy-texnologik komponent ta'lim jarayonini maqsadli qurishga xizmat qiladi; faoliyatli-amaliy komponent ishlab chiqilgan metodik yechimlarni amaliyotga tatbiq etishni ta'minlaydi; diagnostik-baholash komponent natijalarni tahlil qilish va korreksiya kiritish imkonini beradi; refleksiv-rivojlantiruvchi komponent esa metodik faoliyatni uzluksiz takomillashtirishga yo'naltiriladi.

Muhim natijalardan biri shundaki, raqamli kompetentlik metodik kompetentlikning o'rnini bosmaydi, balki uning zamonaviy faoliyat vositalaridan birini tashkil etadi. Pedagogning platforma yoki raqamli resursdan foydalana olishi hali metodik kompetentlikning yuqori darajasini anglatmaydi. Asosiy ko'rsatkich ushbu vositani pedagogik maqsad, o'quvchi ehtiyoji, ta'lim mazmuni va kutiladigan natija bilan uyg'unlashtira olish qobiliyatidir.

Umuman, tahlil natijalari metodik kompetentlikning yangilangan mazmuni uning texnologik jihatdan boyishi bilangina emas, balki pedagogik qaror qabul qilish, raqamli va an'anaviy vositalarni integratsiyalash, natijalarni dalillar asosida baholash va o'z faoliyatini refleksiv qayta qurish imkoniyatlarining kuchayishi bilan tavsiflanishini ko'rsatdi.

XULOSA

Raqamli pedagogika sharoitida metodik kompetentlik bo'lajak pedagogning faqat o'qitish metodlarini bilishi va qo'llashi bilan cheklanmay, balki pedagogik vaziyatni tahlil qilish, ta'lim maqsadlarini aniqlash, raqamli va an'anaviy vositalarni didaktik jihatdan uyg'unlashtirish, o'quv jarayonini loyihalash, metodik qarorlarni amaliyotga tatbiq etish, ta'lim natijalarini diagnostika qilish va o'z faoliyatini refleksiv takomillashtirishni qamrab oluvchi integrativ kasbiy sifat sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijasida metodik kompetentlikning motivatsion-qadriyatli, kognitiv-metodik, loyihaviy-texnologik, faoliyatli-amaliy, diagnostik-baholash va refleksiv-rivojlantiruvchi komponentlardan iborat strukturasi asoslandi. Ushbu komponentlarning funksional integratsiyasi bo'lajak pedagogning raqamli ta'lim muhitida metodik jihatdan asoslangan, moslashuvchan va samarali pedagogik qarorlar qabul qilishiga imkon beradi. Shu bilan birga, raqamli kompetentlik metodik kompetentlikning o'rnini bosuvchi emas, balki uni zamonaviy sharoitda amalga oshirishni ta'minlovchi muhim vosita ekanligi aniqlandi. Demak, "Raqamli pedagogika" fanini tashkil etishda asosiy e'tibor alohida texnologiyalarni o'rgatishga emas, balki ularni pedagogik maqsad, ta'lim mazmuni, metodik faoliyat, diagnostika va refleksiya bilan integratsiyalashga qaratilishi metodik kompetentlikni samarali rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Ta'lim to'g'risida": O'RQ–637-son, 23.09.2020 // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.* – Manba

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. – Manba

3. Mishra P., Koehler M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // *Teachers College Record.* – 2006. – Vol. 108, No. 6. – P. 1017–1054. – DOI: 10.1111/j.1467-9620.2006.00684.x

4. Redecker C. *European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu* / ed. by Y. Punie. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – DOI: 10.2760/159770

5. Caena F., Redecker C. Aligning Teacher Competence Frameworks to 21st Century Challenges: The Case for the European Digital Competence Framework for Educators (DigCompEdu) // *European Journal of Education.* – 2019. – Vol. 54, No. 3. – P. 356–369. – DOI: 10.1111/ejed.12345

6. Muslimov N. A., Usmonboyeva M. H., Sayfurov D. M., To‘rayev A. B. *Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari: o‘quv-metodik qo‘llanma.* – Toshkent, 2015. – 120 b. – Manba

7. Alikulova B. A. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli metodik kompetentligini rivojlantirish // *Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali.* – 2026. – Vol. 8, No. 07. – B. 428–432. – DOI: 10.70728/c.series.ped.v08.i07.059

8. Алексеев С. В., Боголепов С. А. Проблемы современного понимания методической компетентности учителя // *Непрерывное образование: XXI век.* – 2021. – Вып. 2 (34). – С. 73–86. – DOI: 10.15393/j5.art.2021.6929

9. Хаматвалиева Р. Р. *Формирование методической компетентности будущего учителя начальных классов в цифровой образовательной среде вуза: дис. ... канд. пед. наук: 5.8.1.* – Казань, 2023. – 213 с. – Источник

10. Tondeur J., van Braak J., Sang G., Voogt J., Fisser P., Ottenbreit-Leftwich A. Preparing Pre-Service Teachers to Integrate Technology in Education: A Synthesis of Qualitative Evidence // *Computers & Education.* – 2012. – Vol. 59, No. 1. – P. 134–144. – DOI: 10.1016/j.compedu.2011.10.009

11. Instefjord E. J., Munthe E. Educating Digitally Competent Teachers: A Study of Integration of Professional Digital Competence in Teacher Education // *Teaching and Teacher Education.* – 2017. – Vol. 67. – P. 37–45. – DOI: 10.1016/j.tate.2017.05.016

12. Falloon G. From Digital Literacy to Digital Competence: The Teacher Digital Competency (TDC) Framework // *Educational Technology Research and Development.* – 2020. – Vol. 68. – P. 2449–2472. – DOI: 10.1007/s11423-020-09767-4